

XORIJIY MAMLAKATLAR TA'LIM MUASSASALARDA MONITORING TIZIM

Mirzarakhmonova Shakhnoza Mirzaakhmadovna

*Alfraganus Universiti dotsenti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD)*

<https://orcid.org/0009-0006-8852-1792>

Annotatsiya. Ushbu maqolada xorijiy mamlakatlar ta'lim tizimida monitoring mexanizmlarining mohiyati, tuzilishi va samaradorligini ta'minlovchi omillar tahlil qilingan. Tadqiqotda AQSh, Buyuk Britaniya, Finlyandiya, Yaponiya va Janubiy Koreya kabi mamlakatlarda qo'llanilayotgan ta'lim monitoringi tizimlarining o'ziga xos xususiyatlari yoritilgan. Maqolada xalqaro tajribadan kelib chiqib, ta'lim sifatini baholash, natijadorlikni tahlil qilish hamda ta'lim siyosatini takomillashtirishda monitoring tizimining tutgan o'rni ilmiy asosda izohlangan. Muallif xorijiy tajribalarga tayanib, O'zbekiston ta'lim tizimida monitoringni raqamlashtirish, indikatorlar tizimini joriy etish va uzluksiz tahlil mexanizmlarini shakllantirish bo'yicha konseptual takliflar ilgari suradi.

Kalit so'zlar: ta'lim monitoringi, xalqaro tajriba, ta'lim sifati, baholash tizimi, indikatorlar, tahlil, raqamli monitoring, sifat menejmenti.

Ma'lumki, o'zgarishlar davrida ta'lim tizimi ijtimoiy jarayonlardan kelib chiqqan holda shiddat bilan rivojlanishni taqozo etadi. Ta'lim orqali jamiyatda kelajakdagi vazifalarni bajarishga qodir bo'lgan yangi avlod shakllantiriladi. Shuni inobatga olgan holda umumta'lim maktablari va maktabgacha ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, yosh avlodning har tomonlama puxta bilim olishi uchun zarur sharoit va imkoniyatlar yaratishga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. Yuqoridagi talablarning ta'lim tizimi uchun juda muhim ekanligi, aksariyat xorijiy davlatlardagi kabi ta'lim va fan sohalari

<https://scientific-jl.com/>

rivojlanishini baholash va monitoring qilish orqali ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan ilg'or tajribalarni sohaga jalb qilish kerakligini anglatadi.

Fuqarolik jamiyati shakllanishini monitoring qilish mustaqil instituti mutaxassislari aynan mana shunday talablarning bugungi kun ta'lim tizimi uchun juda muhim ekanligini inobatga olgan holda aksariyat xorijiy davlatlarda ta'lim va fan sohalari rivojlanishini baholash va monitoring qilish orqali ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan ayrim ilg'or tajribalarni o'rganib chiqdi.

Xususan, dunyoda ta'lim sifati, holati va darajasini aniqlab beruvchi PISA (O'quvchilarni ta'limdagi yutuqlarini baholash xalqaro dasturi), PIRLS (Matnni o'qish va tushunish darajasini aniqlovchi xalqaro tadqiqot), TIMSS (Maktabda matematika va aniq fanlar sifatini tadqiq qiluvchi xalqaro monitoring) kabi bir qator xalqaro dasturlar mavjud bo'lib, ular rivojlangan davlatlardagi ta'lim sifatini yanada oshirishdagi mezon sifatida keng qo'llanilib kelinmoqda.

Shunday baholash tizimiga misol qilib, Milliy ta'lim taraqqiyotini baholash (NAEP) - bu Qo'shma Shtatlarda o'tkaziladigan yagona milliy darajadagi keng ko'lamli tizim monitoringi testini olishimiz mumkin. NAEP, Qo'shma Shtatlar milliy savodxonlik darajasini baholash va ta'lim natijalarini o'lchash uchun ishlatiladi va "Milliy hisobot kartochkasi" yoki "Mamlakatning hisoboti" deb ham ataladi. Bu test 1969-yilda tashkil etilgan va Qo'shma Shtatlar Milliy ta'lim statistikalar markazi (NCES) tomonidan yuritiladi.

NAEP testining asosiy maqsadi milliy darajada Qo'shma Shtatlardagi o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini obyektiv va mustaqil ravishda o'lchash va baholab, ta'limning sifatini yaxshilash uchun asosiy ma'lumotlar taqdim etishdir. NAEP, har xil shtatlar, turli demografik guruhlar va turli ta'lim shakllari o'rtasidagi ta'lim darajasini taqqoslash imkonini beradi va quyidagi jihatlar bo'yicha baholashni o'z ichiga oladi:

-o'quvchilarning bilim darajasi: NAEP, o'quvchilarning asosiy fanlardagi - o'qish, matematika, fanlar, tarix va boshqalar - bilim va tushunchalarini baholaydi;

- ta'lim trendlarini tahlil qilish: vaqt o'tishi bilan o'quvchilarning bilim darajasidagi o'zgarishlarni kuzatadi;
- ta'lim sifatini o'lchash: turli shtatlar, hududlar va etnik guruhlardagi o'quvchilarning ta'lim sifatini solishtiradi;
- siyosiy qarorlar uchun asos yaratish: olingan natijalar, ta'lim siyosat yurituvchilarga, qonun chiqaruvchilarga va ta'lim muassasalariga ta'lim sifati yaxshilashga yo'naltirilgan qaror va dasturlarni ishlab chiqish uchun kerakli ma'lumotlar asosini beradi va ta'lim sifatini olib borish va uni yaxshilash bo'yicha qarorlar qabul qilishda ma'lumotlar taqdim etadi.

NAEP baholashlari noaniqlik va subyektivliklarni kamaytirish uchun tasodifiy tanlangan sinf va o'quvchilar orasida o'kaziladi. U standartlashtirilgan test sifatida, mamlakat bo'ylab ta'lim sistemasining umumiy holatini yoritib beradi, lekin biror muayyan o'quvchi yoki sinf o'qituvchisi uchun alohida natijalarni taqdim etish uchun mo'ljallanmagan. NAEP natijalari Qo'shma Shtatlar umumiy ta'lim sifatini yaxshilash va ta'lim siyosatini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi.

NAEP testi, shuningdek, umumiy ta'lim muassasalari uchun benchmark yaratish va umumiy xalq ta'lim tizimining ta'sirini faollashtirish uchun foydalaniladi. Bu test natijalari davlat va milliy miqyosdagi ta'limning holatini yoritib berishda muhim ahamiyat kasb etadi.

NAEP testi, odatda, turli xil fanlar bo'yicha o'quvchilar bilim darajasini o'lchaydi va bu fanlar bir nechta asosiy yo'nalishlarni o'z ichiga oladi. Bu yo'nalishlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- O'qish: o'quvchilarning tushunish, matnni tahlil etish va yozma ma'lumotlarni talqin etish qobiliyatlari.
- Matematika: hisob-kitob, matematik tushunchalar va uslublar haqidagi bilimlar.

-Tabiiy fanlarga, shu jumladan biologiya, fizika, kimyo, yer fanlari va ekologiyaga oid bilimlar.

- Ijtimoiy fanlar: tarix, geografiya, fuqarolik va iqtisodiyot kabi ijtimoiy fanlar bo'yicha bilimlar.

- Yozish: o'quvchilarning yozish ko'nikmalarini va yozish jarayonidagi mahoratini.

- Texnologiya va muhandislik mahorati: zamonaviy texnologiya va muhandislik asoslarining tushunilishi.

NAEP testi har yili emas, odatda, qish oylarida va bir necha yillik sikllarda o'tkaziladi. Har bir o'tkaziladigan testda barcha fanlar emas, balki ba'zi fanlar tanlab olinadi. Masalan, o'qish va matematika fanlaridan testlar deyarli har ketma-ket test sikllarida bo'lib o'tadi, boshqa fanlar esa ma'lum bir jadval asosida. Test natijalari, AQShning ta'lim sifatini va akademik unumdorligini baholash uchun ishlatiladi.

NAEP testi o'quvchilarning joriy bilim va ko'nikmalarini baholashda ta'lim muassasalari uchun rejalashtirish va siyosat yuritishda qo'llaniladigan muhim vosita hisoblanadi. Test natijalari muntazam ravishda e'lon qilinadi va AQSh ta'lim tizimining turli darajalarida o'rganiladi va muhokama qilinadi.

Bugungi kunda har qaysi xalq, davlat va jamiyatning taraqqiyot darajasi, avvalambor uning inson kapitaliga, inson rivojida berayotgan e'tibori bu yo'ldagi say harakatlari bilan o'lchanadi. Bugungi kunda ta'lim mazmuniga bo'lgan e'tibori yuqori darajada baholanadigan rivojlangan mamlakatlardan biri Yaponiyaning ta'lim tizimini hamda o'qituvchilarining kasbiy rivojlanishida imkoniyatlarini tahlil qilib o'tamiz.

Yaponiya ta'limida "iqtidorli o'quvchi" tushunchasi yo'q, chunki har bir o'quvchi alohida iqtidor sohibidir. Ilg'or mamlakatlar ichida Yaponiya ta'limi o'ziga xos yo'nalishi yetakchi o'rinni egallaydi.

Yaponiyada ta'lim sifatini monitoring qilish va baholash, o'quvchilarning

akademik natijalarini yaxshilash va pedagogik jarayonlarni takomillashtirishga qaratiladi.

Yaponiya ta'lim tizimining asosiy xususiyatlari quyidagilardir:

1. Muntazam davlat imtihonlari: o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini baholash uchun muntazam ravishda o'tkaziladigan turli darajadagi davlat imtihonlari o'tkaziladi.

2. Tizimli o'qituvchini baholash: o'qituvchilarning samaradorligini aniqlash va ularning kasbiy rivojlanishini baholash uchun tizimli baholashlar amalga oshiriladi.

3. Ta'lim siyosatlarining rejalashtirilishi: ta'lim sohasida siyosat yuritish va rejalashtirish uchun turli xil tadqiqotlar va tahlillar asosida strategik qarorlar qabul qilinadi.

4. Xalqaro baholash dasturlarida qatnashish: PISA (Xalqaro o'quvchi baholash dasturi) kabi xalqaro baholash dasturlarida qatnashish orqali ta'lim sifatini xalqaro darajada o'lchaydi.

Yaponiya ta'lim tizimida monitoring va baholash tizimi, ta'lim sifatini yaxshilash va o'quvchilar uchun eng yaxshi ta'im muhitini yaratish maqsadida aniq ma'lumotlar asosida qarorlar qabul qilishni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Yaponiyada o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishi jiddiy e'tiborga olinadi va quyidagi komponentlarni o'z ichiga oladi:

1. Litsenziyalash: o'qituvchilar, amaliyot va dastlabki imtihonlardan o'tish orqali o'qituvchilik litsenziyasini oladilar.

2. O'quv dasturlari: yangi o'qituvchilar maktab muhitiga moslashish va pedagogik malakasini oshirish uchun birinchi bir necha yil davomida maxsus dasturlarda qatnashadilar.

3. Doimiy professional rivojlanish: tizimli ta'lim, seminarlar, konferentsiyalar va qisqa muddatli dasturlar orqali o'qituvchilar kasbiy bilim va ko'nikmalarini yangilab turadilar.

4. Ta'lim metodlari bo'yicha seminarlar va tadqiqotlar: o'qituvchilarga

yangi o'qitish uslublari va texnologiyalari, pedagogik tadqiqotlar istiqbollari haqida bilim beruvchi tadbirlar muntazam ravishda tashkil etiladi.

5. Mentorlik va hamkorlik: tajribali o'qituvchilar yangi o'qituvchilarga mentorlik qilishadi va bir-birlari bilan bilim va tajriba almashinadi.

6. Kasbiy litsenziyaning yangilanishi: o'qituvchilar ma'lum vaqtdan keyin litsenziyalarni yangilash uchun zarur kasbiy rivojlanish soatlarni to'plashlari kerak bo'ladi.

Yaponiyada o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishi ta'lim tizimining o'zgaruvchan talablari va jamiyatning yuqori standartlari bilan uyg'unlashgan

holda amalga oshiriladi. Bu jarayon o'qituvchilarning doimiy o'sishini va ta'lim sifatining doimiy yaxshilanishini ta'minlaydi.

Yaponiya o'rta maktablarining saviyasi AQSH o'rta maktablari saviyasidan bir muncha yuqori turadi. Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki yaponiyada ta'lim tizimi ham shaklan, ham mazmunan yuksak uyg'unlik kasb etgan. Ibrat olsa, o'rgansa arziydigan jihatlari ko'p. E'tiborli yana bir tomoni – Yaponiyada faqat milliy an'analar bilan cheklanib qolmay jahondagi AQSH, Fransiya, Germaniya kabi taraqqiy etgan mamlakatlarning ilg'or pedagogik ish tajribalari ham ijodiy o'zlashtirilgan. Bunday tajribalarni respublikamiz ta'lim tizimini rivojlantirishda qo'llasak yanada yuqori pog'onaga ko'tarishda qo'l kelishi shubhasiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Bandura, A. (1997). Self-efficacy: The exercise of control. New York: W.H. Freeman.
2. Bar-On, R. (2006). The Bar-On model of emotional-social intelligence (ESI). Psicothema, 18(1), 13–25.
3. Damasio, A. (2018). The strange order of things: Life, feeling, and the making of cultures. New York: Pantheon Books.
4. Gallese, V. (2015). Embodied simulation: From neurons to phenomenal experience. Phenomenology and the Cognitive Sciences, 14(1), 1–23.
5. Goleman, D. (2013). Emotional intelligence: Why it can matter more than IQ.

New York: Bantam.

6. Karpov, A. V. (2010). Reflexivity as a psychological construct: Methodological foundations and measurement tools. Moscow: Smysl.

7. Kolb, D. A. (2015). Experiential learning: Experience as the source of learning and development. New Jersey: Pearson Education.

8. Leontiev, A. N. (2005). Activity, consciousness, and personality. Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall.

9. Anvarovna, A. S. (2023). Constructions (models) of social intelligence in future English language teachers. Horizon: Journal of Humanity and Artificial Intelligence, 2(4), 169-172.

10. Anvarovna, A. S. ., & Kahharova. (2024). SOCIAL-PSYCHOLOGICAL ADJUSTMENT OF FIRST YEAR UNIVERSITY STUDENTS. JOURNAL OF EDUCATION, ETHICS AND VALUE, 3(1), 230–234. Retrieved from <https://jeev.innovascience.uz/index.php/jeev/article/view/439>

11. Ataxo'jayeva, S. A. (2020). INGLIZ TILINI O'RGATISHDA LOYIXA ISHINI TASHKIL QILISHNING AFZALLIKLARI. Science and Education, 1(1), 403-406.

12. Ataxo'jayeva, S. (2023). EMPIRICAL FOUNDATIONS OF THE STUDY ENGLISH LANGUAGE TEACHERS. GULDU AXBOROTNOMASI.–2023.

13. Nortoji Jumayevich Eshnaye, & Shahlo Anvarovna Atakhujaeva (2021). SELF-DESTRUCTIVE BEHAVIOR AND ITS ESSENCE. Academic research in educational sciences, 2 (CSPI conference 1), 371-375.

14. Atakhujaeva, S. (2023). CONSTRUCTIONS (MODELS) OF SOCIAL INTELLIGENCE IN FUTURE ENGLISH LANGUAGE TEACHERS. Horizon: Journal of Humanity and Artificial Intelligence.

15. Atakho'jayeva, S. A. (2025). Ways To Form The Social-Emotional Competence Of A Foreign Language Teacher In The Conditions Of Digital Education. International Conference on Global Trends and Innovations in Multidisciplinary Research, 1(4), 75-80.
<https://www.tlepub.org/index.php/2/article/view/325>

16. Атаходжаева, Ш. А. (2025). Роль Информационных Технологий В Обществе. International Conference on Global Trends and Innovations in Multidisciplinary Research, 1(4), 17-21.
<https://tlepub.org/index.php/2/article/view/292>
17. Ataxo'jayeva, S. (2022). SELF-DESTRUCTIVE BEHAVIOR AND ITS ESSENCE.
18. Atakhujaeva, S. A. (2022). DIAGNOSIS OF ADOLESCENTS' UNDERSTANDING OF MORAL AND LEGAL FORMS. *INTERNATIONAL CONFERENCE ON LEARNING AND TEACHING*, 1(4), 317-319.
19. Ataxo'jayeva, S. (2023). EMPIRIAL FOUNDATIONS OF THE STUDY ENGLISH TEACHERS' SOCIAL INTELLIGENCE.
20. Atakhujaeva, S. (2023). Constructions (Models) Of Social Intelligence In Future English Language Teachers. *Horizon: Journal of Humanity and Artificial Intelligence*.
21. Anvarovna, A. S. (2023). Constructions (models) of social intelligence in future English language teachers. *Horizon: Journal of Humanity and Artificial Intelligence*, 2(4), 169-172.
22. Atakho'jayeva, S. A. (2025). Ways To Form The Social-Emotional Competence Of A Foreign Language Teacher In The Conditions Of Digital Education. International Conference on Global Trends and Innovations in Multidisciplinary Research, 1(4), 75-80.
<https://www.tlepub.org/index.php/2/article/view/325>
23. Anvarovna , A. S. (2025). Pedagogical and Psychological Factors Determining the Effectiveness of the Social-Emotional Competence of a Foreign Language Teacher in Higher Education. *American Journal of Open University Education*, 2(9), 54–59. Retrieved from <https://scientificbulletin.com/index.php/AJOUP/article/view/1266>